

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариш давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариш давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддиневич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Зумрад Бойхўразовна Раҳмонкулова XXI АСР ТУРКИЯ ТАРИХШУНОСЛИГИДА ЖАДИДЧИЛИК МАСАЛАЛАРИ.....	5
2. Gulnara Rashidovna Joldasbaeva QORAQALPOQLARNING AN'ANAVIY SUT MAHSULOTLARI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI.....	11
3. Nigora Azadovna Egamberdiyeva XORAZMNING QADIMIY HUNARMANDCHILIGI TARIXI (KULOLCHILIK TARIXI MISOLIDA).....	17
4. С.И.Габриэльян СРЕДНЕВОСТОЧНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ РУССКО-ГЕРМАНСКОГО СОПЕРНИЧЕСТВА НАКАНУНЕ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	23
5. Risolat Davron qizi Murodova ILMIY MEROSNI SAQLASHDA ILMIY MUZEYLARNING O'RNI: TAJRIBA VA TAHLIL...	35
6. Shukrullo Nasriddinov, Dilshod To'xtasinov O'RTA OSIYO DINIY-MONUMENTAL ME'MORCHILIGINING AYRIM XUSUSIYATLARI HAQIDA.....	42
7. Sherbek Axmedovich Omanov, Shukrullo Nazrullayevich Nasriddinov AXSIKENT YODGORLIGI ASOSIDA O'RTA ASRLAR UY - JOY XO'JALIGI MODDIY MADANIYATINING O'RGANILISHI.....	48
8. Матлуба Бойхурозовна Раҳманкулова XVI–XVII АСРЛАР МАРКАЗИЙ ОСИЁ МУҚОВАЛАРИДА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ҲИРОТ МУҚОВАСОЗЛИК УСЛУБИ АНЪАНАЛАРИ.....	54
9. Abdulla Nuritdinovich Rasulov, Nurillo Abdulboqiyevich Rejabboyev SAMARQAND VILOYATI OCHARCHILIK OQIBATLARINI TUGATISH KOMISSIYASI FAOLIYATI.....	63
10. Рустам Султонмуродович Солиев XX ASRDA TURKISTONDAGI SIYOSIY PARTIYALAR VA IJTIMOIY-SIYOSIY HARAKATLAR.....	71
11. Xayrullo Lutfillojon o'g'li Xolmirzayev QO'QON XONLIGIDA 1853-YIDAN KEYINGI SIYOSIY HARAKATLAR VA MALLAXONNING HOKIMIYATGA KELISHI.....	76
12. Mirzabek Karimjon o'g'li Xolboyev FARG'ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	82



Mirzabek Karimjon o'g'li Xolboyev,
 Namangan davlat universiteti
 Ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi
 e-mail: mirzabek7176@gmail.com

FARG'ONA VODIYSI OBLASTLARIDAGI ARXIV MUASSASALARI FAOLIYATI TARIXI: MUAMMO VA YECHIMLAR

For citation: Mirzabek K. Kholboev. HISTORY OF ACTIVITIES OF ARCHIVE INSTITUTIONS IN THE FERGANA VALLEY REGIONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 7.



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807489>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada farg'ona vodiysida arxivlar tashkil topishi, arxivlarga bo'lgan e'tibor, moddiy-texnik ta'minot bo'yicha amalga oshirilgan ishlar haqida ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, Farg'ona vodiysi viloyatlarida arxiv muassasalarining shakllanishi va taraqqiyoti tarixiy jarayonlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda XX asrning 20–30-yillaridan boshlab Farg'ona, Andijon va Namangan hududlarida davlat arxivlari tashkil topishi, ularning boshqaruv tizimi, fondlar tarkibi hamda hujjatlarni saqlash va hisobga olish amaliyoti bosqichma-bosqich yoritiladi. Muallif arxiv ishida uchrayotgan dolzarb muammolar – moddiy-texnik bazaning yetishmasligi, kadrlar malakasining turlicha darajada ekani, raqamlashtirish jarayonining sustligi, hujjatlar komplektlash va foydalanish madaniyatidagi kamchiliklarni hududlar kesimida ko'rsatib beradi. Shuningdek, maqolada zamonaviy arxivshunoslik talablari asosida ushbu muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va yechimlar ishlab chiqiladi: arxiv infratuzilmasini yangilash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy-metodik ishlarni kuchaytirish, mahalliy tarixshunoslik va ta'lim tizimi bilan integratsiyani kengaytirish kabi yo'nalishlar asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari Farg'ona vodiysi arxiv muassasalari faoliyati tarixini yanada chuqur o'rganish, hududiy arxivlar faoliyatini takomillashtirish va hujjatlarni ilmiy muomalaga kiritish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: arxiv, Farg'ona oblast arxivi, Andijon oblast arxivi, Namangan okrugi arxiv byurosi, moddiy-texnik baza, Namangan oblasti davlat arxivi, tuman arxivlari, fond, arxiv boshqarmasi, SSSR Markaziy arxiv Boshqarmasi.

Холбоев Мирзабек Каримжон угли,
 Наманганский государственный университет
 Преподаватель факультета социальных наук
 e-mail: mirzabek7176@gmail.com

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АРХИВНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В РЕГИОНЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о создании архивов в Ферганской долине, об уровне внимания, уделяемого архивам, и о работе по материально-техническому обеспечению. Также анализируется формирование и развитие архивных учреждений в регионах Ферганской долины на основе исторических процессов. Исследование постепенно охватывает формирование государственных архивов в Ферганской, Андижанской и Наманганской областях в 20-30-е годы XX века, их систему управления, состав фондов, а также практику хранения и учета документов. Автор показывает текущие проблемы, встречающиеся в архивной работе: недостаток материально-технической базы, разный уровень квалификации персонала, медлительность процесса оцифровки и недостатки в культуре документооборота и использования по регионам. В статье также разрабатываются предложения и решения по устранению этих проблем с учетом требований современной архивной науки: обосновываются такие направления, как модернизация архивной инфраструктуры, широкое внедрение цифровых технологий, укрепление научно-методической работы и расширение интеграции с местной историографией и системой образования. Результаты исследования имеют важное научно-практическое значение для более глубокого изучения истории деятельности архивных учреждений Ферганской долины, для совершенствования работы региональных архивов и для введения документов в научное обращение.

Ключевые слова: архив, Ферганский областной архив, Андижанский областной архив, Наманганское районное архивное бюро, материально-техническая база, Наманганский областной государственный архив, районные архивы, фонд, архивное управление, Центральное архивное управление СССР.

Mirzabek K. Kholboev,

Namangan State University

Teacher of the Faculty of Social Sciences

e-mail: mirzabek7176@gmail.com

HISTORY OF ACTIVITIES OF ARCHIVE INSTITUTIONS IN THE FERGANA VALLEY REGIONS: PROBLEMS AND SOLUTIONS

ABSTRACT

This article provides information about the establishment of archives in the Fergana Valley, the attention paid to archives, and the work carried out on material and technical support. The article also analyzes the formation and development of archival institutions in the Fergana Valley regions based on historical processes. The study gradually covers the formation of state archives in the Fergana, Andijan, and Namangan regions in the 1920s and 1930s, their management systems, the composition of their collections, and document storage and accounting practices. The author identifies current challenges facing archival work: a lack of material and technical resources, varying levels of staff qualifications, the slowness of the digitization process, and shortcomings in the culture of document management and use across regions. The article also develops proposals and solutions for addressing these issues, taking into account the requirements of modern archival science. It substantiates such areas as the modernization of archival infrastructure, the widespread adoption of digital technologies, strengthening scientific and methodological work, and expanding integration with local historiography and the education system. The research results have important scientific and practical implications for a more in-depth study of the history of archival institutions in the Fergana Valley, for improving the work of regional archives, and for introducing documents into scholarly circulation.

Index Terms: archive, Fergana Oblast Archive, Andijan Oblast Archive, Namangan District Archive Bureau, material and technical base, Namangan Oblast State Archive, district archives, fund, archive department, USSR Central Archive Department.

1. Dolzarbligi:

Mavzuning dolzarbligi shundaki, Farg'ona vodiysi viloyatlaridagi arxiv muassasalari faoliyati tarixi mintaqa tarixiy xotirasini saqlash, tadqiq etish va jamiyatga yetkazishning asosiy institutsional tayanchi hisoblanadi. Farg'ona, Andijon va Namangan arxivlarida vodiya siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlar, jumladan sho'rolar hokimiyatining o'rnatilishi, sanoat va irrigatsiya tizimi (masalan, Katta Farg'ona kanali) qurilishi, maorif va madaniyat taraqqiyoti bo'yicha noyob hujjatlar jamlangan. Bu hujjatlar XIX–XX asrlar vodiya tarixini, shuningdek, ayollarni ozodlikka chiqarish, dehqonlar, ishchilar harakati, milliy-ozodlik harakatlari va boshqa ijtimoiy jarayonlarni o'rganish uchun asosiy manba sifatida xizmat qiladi. Viloyat va shahar arxiv fondlarida ma'muriy boshqaruv, yer-suv munosabatlari, urbanizatsiya, sanoat korxonalarining bunyod etilishi va infratuzilmaning shakllanishiga oid materiallar saqlanadi; ular hududiy siyosat va rejalashtirish tarixini tahlil qilishga imkon beradi. Arxivshunoslik bo'yicha zamonaviy adabiyotlar arxiv ishini milliy tarixiy xotirani tiklash, ilmiy-tadqiqot salohiyatini oshirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bilan bevosita bog'liq strategik soha sifatida baholaydi; shunga ko'ra vodiya arxivlari faoliyatini isloh qilish konsepsiyasini ishlab chiqish talab etiladi. Farg'ona viloyati arxiv ishidagi yangilanishlar, ko'rgazmalar, jamoatchilikka ochiqlik borasidagi tashabbuslar mavjud bo'lsa-da, ularni tizimli o'rganish, muammolarni tahlil qilish va hududiy, milliy hamda xalqaro tajriba asosida yechimlar ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb vazifadir.

2. Metodlar:

Mavzuni o'rganishda klassik tarixiy-uslubiy yondashuvlar bilan birga arxivshunoslikka xos maxsus metodlardan foydalanilgan. Arxiv fondlari, normativ-huquqiy hujjatlar, nizom va yo'riqnomalar, hisobotlar, ko'rgazma kataloglari kabi yozma manbalarni manbashunoslik tamoyillariga ko'ra tanlash, tavsiflash va tanqidiy tahlil qilish shular jumlasiga kiradi. Arxiv muassasasini butun boshqaruv tizimi tarkibida, uning vazifalari, tuzilmasi, boshqa idoralar bilan aloqalari orqali o'rganish uchun tizimli yondashuv va funktsional tahlil usullaridan foydalanildi. Funktsional tahlil yordamida arxiv muassasasining bajaradigan vazifalari, hujjatlarning axborot tarkibi va ahamiyati o'rganildi. Qiyosiy va retrospektiv tahlil asosida Farg'ona, Andijon, Namangan arxivlari faoliyatini bir-biri bilan, shuningdek, respublika darajasidagi markaziy arxivlar bilan solishtirish orqali qiyosiy tahlil qilindi. Retrospektiv tahlil yordamida turli davrlarda (Turkiston, sovet va mustaqillik davri) qabul qilingan qarorlar, tuzilmaviy o'zgarishlar, metodik qo'llanmalar evolyutsiyasi tahlil qilingan. Statistik va kontent tahlil yordamida arxiv hujjatlari soni, fondlar tarkibi, foydalanuvchilar oqimi, raqamlashtirilgan hujjatlar hajmi va boshqa ko'rsatkichlarni matematik-statistik usullar bilan tahlil qilish orqali arxiv muassasalarining samaradorligini baholash mumkin. Arxiv ishi bo'yicha qonunlar, farmonlar, nizom va ko'rsatmalarni normativ-huquqiy tahlil qilish, ular Farg'ona vodiysi arxiv muassasalari faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatgani o'rganildi. Institutsional yondashuv orqali arxiv muassasalarini davlat boshqaruvi, mahalliy hokimiyat, ilmiy muassasalar va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar kontekstida o'rganildi.

3. Tadqiqot natijalari:

Barcha davrlarda O'zbekistonning asosiy shaharlaridan biri, o'ziga xos tarixga ega Farg'ona oblastining muhim tarixiy hujjatlarini saqlovchi davlat arxivining tashkil etilishi XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Dastlab vodiya hududlari hujjatlarini saqlanishini ta'minlash, ularda ish yuritish tizimini boshqarish aynan Farg'ona oblastidan boshlangan.

Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIQ) Sovetining 1920 yil 29 maydagi 301-sonli "Arxiv ishini tashkil etish va markazlashtirish haqidagi Dekret"iga muvofiq, Arxiv ishi bo'yicha Markaziy Boshqarmaning Farg'ona oblasti bo'yicha Boshqarmasi tashkil etilgan. Bir yil davomida – 1920 yil martidan 1921 yil martigacha Turkiy respublikaning Farg'ona (K.Genkuzen), Samarqand (Porolev), Kaspiy orti (Zakaspiy S.I.Belkevich) oblastlarida oblast davlat arxivlari tashkil etildi. E'tiborlisi, mashhur arxeolog B.L.Vyatkin Samarqand davlat arxiv fondiga ilmiy xodim etib tayinlangan[1]. Shahar ijroiya qo'mitasi huzuridagi arxiv ishi ijroiya qo'mitasi zimmasida bo'lishi kerakligi belgilangan. Bundan tashqari, MIQ ning 1922 yil 16 maydagi 61-sonli farmoni bilan belgilangan muassasalarning eski yillardagi hujjatlari Farg'ona shahridagi Davlat arxiv fondiga topshirilishi shart edi. Mahalliy arxiv muassasalari Turkiston XKK ning 1921 yil 25

yanvardagi qarorining 5-bandiga asosan, muassasa hisobidan chiqarilib, “Oblast arxiv fondlari to‘g‘risida”gi qarorida qonuniy ro‘yxatdan o‘tgan[1]. Markaziy arxiv ishi boshqarmasi muassasalardagi eski hujjatlarning xavfsizligi uchun javobgarlikni asosan hududiy arxivlarga yuklashini qayd etgan. Ya‘ni, hujjatlarni bir joyda to‘plash ishlari boshlangan davr edi.

Andijon uyezdi arxivi 1909 yilda Eski shahar hududidagi Masjidi binosida ish boshlagan. Ushbu arxivda o‘sha davrdagi Inqilob qo‘mitasi va Uezd muvaqqat hukumati hujjatlari saqlangan. Shuningdek, o‘sha davrdagi kichik paxta tayyorlash korxonalari, hunarmandchilik hamda ijarachilik artellari, asosan, o‘sha davr tuzumiga doir materiallar arxiv saqloviga qabul qilingan va ulardan foydalanilgan. Uyezd shahar arxivi ichki ishlar boshliqlari ixtiyorida bo‘lgan va uning xodimlarigina ishlagan. Hujjatlardan foydalanishda mahalliy boshqaruv organlar xodimlari uchun ham qiyinchiliklar tug‘dirgan va markaz tomonidan belgilangan shaxslarigina foydalana olgan.

1925 yilda Andijon okrugi arxiv byurosi deb, 1927 yilda Andijon okrugi arxiv boshqarmasi deb nomlangan va 1940 yilda ushbu arxivlar bazasi asosida Andijon oblasti davlat arxivi tashkil etilgan[2].

Andijon oblasti tashkil topishi munosabati bilan davlat muassasalarida ham yangi tuzilmalar ish boshlaydi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1941 yil 6 martdagi farmoni bilan Andijon oblasti tashkil etilgan. Oblastning tashkil etilishi munosabati bilan oblast tashkiliy qo‘mitasining qarorlari asosida sog‘liqni saqlash, rejalashtirish, suv xo‘jaligi, moliya, aloqa, madaniyat, maorif, savdo va boshqa bo‘limlari tashkil etilgan. Shu bilan birga, ichki ishlar Xalq komissarligi boshqarmasining Andijon oblasti arxiv bo‘limi tashkil etilishi belgilangan. SHu munosabat bilan Andijon oblast davlat arxivi 1941 yil 9 aprelda O‘zbekiston SSR Oliy kengashi Andijon oblasti bo‘yicha tashkiliy qo‘mitasining qarori bilan tashkil etilgan va shu davrdan boshlab Andijon oblasti Ichki ishlar xalq komissarligi boshqarmasi (NKVD)ning arxiv bo‘limi qaramog‘ida ish boshlagan.

1926 yildagi Farg‘ona oblast ijroiya qo‘mitasi Prezidiumi qaroriga ko‘ra:

1. Barcha oblast, rayon va volost muassasalarini 402-sonli qaroriga binoan yuborilgan ko‘rsatmalarga amal qilgan holda, inqilobdan oldingi hamda inqilobdan keyingi o‘z tasarrufidagi arxivlarni darhol tartibga solishni boshlash kerakligi va oblast ijroiya qo‘mitasi qaroridan so‘ng 2 oy muddatda bajarish belgilangan.

2. Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining 4022 va 107-sonli buyruqlari bajarilishini tekshirish uchun yuqori vakolatli organ va Bosh arxiv boshqarmasi bilan birgalikda arxivchi va instruktorlarni zudlik bilan joylarga yuborish qayd etiladi. Arxivchilar bajarilgan ish natijalarini ijroiya qo‘mitasiga ma‘lum qiladi va komissar Bosh arxiv boshqarmasiga xabar beradi va oblast ijroiya qo‘mitasi Prezidiumiga hisobot bergan[3].

O‘zSSR Markaziy arxiv direksiyasining Buxoro, Samarqand va Farg‘ona shaharlaridagi filiallari faoliyati mutlaqo qoniqarsiz ekanligi munosabati bilan hamda rayon va shahar arxivlarini tashkil etish bo‘yicha ishlar uchun filial rahbarlarining shaxsiy javobgarligini belgilash maqsadida; filiallarga xizmat ko‘rsatishi shart bo‘lgan quyidagi shahar va rayonlar arxivlari tashkil etilishi belgilandi:

I. MARKAZIY ARXIV BOSHQARMASI BUXORO BO‘LIMI

a) Kogon shahar b) rayonlar Oyim, Akmalobod, Baumanskiy, Vobkent, F. Xo‘jaev, Qorako‘l, Konimeh, Karmana, Qizil tepa, Nur-ota, Romitan

II. MARKAZIY ARXIV BOSHQARMASI SAMARQAND FILIALI

rayonlar: 1. Oqdar. 2. Bulung‘ur. 3. G‘allaorol. 4. Jomboy. 5. Jizzax. 6. Zomin. 7. Ikromov. 8. Qoradaryo. 9. Kattaqo‘rg‘on. 10. Itan. 11. Narpay.

12. Payariq. 13. Paxtakor. 14. Urgut. 15. Forish. 16. Xatirchi.

III. MARKAZIY ARXIV BOSHQARMASI FARG‘ONA BO‘LIMI

A) Andijon, Marg‘ilon, Namangan shaharlari va rayonlarda:

1. Toshloq. 2. Marhamat. 3. Leninsk (Asaka). 4. Xo‘jaobod.

5. Jalalquduq. 6. Voroshilovskiy. 7. Izboskan. 8. Baliqchi.

9. Norin. 10. Oltiariq. 11. Bag‘dod. 12. Kuybishev.

13. To‘raqo‘rg‘on. 14. Chust. 15. Kosonsoy. 16. Yangiqo‘rg‘on. 17. Pop.

Bo'lim boshliqlari Ahadov (Buxoro) Burtasov (Samarqand) Ivlev (Farg'ona) SSSR va O'zSSR hukumatining shahar hamda rayon arxivlarini tashkil etish to'g'risidagi qarorlarining bajarilishi uchun shaxsan javobgar bo'lgan. 1937 yil 1 oktyabrda ularga birlashtirilgan barcha shahar va rayonlarda arxivlar tashkil etish hamda ularni ta'minlash majburiyati yuklatilgan. Shahar va rayon arxivlari xodimlarining malakasini oshirish kurslari tashkil etilishi munosabati bilan bo'lim boshliqlariga 25 maydan kechiktirmay o'zlari xizmat ko'rsatayotgan hududlardan vakillarni kurslarga yuborilishini ta'minlash vazifasi yuklatildi[4]. Ya'ni, yangi tashkil etilayotgan arxivlarga xodimlarni tayyorlash ishlari shu yilning o'zidan boshlangan.

Farg'ona hududidagi yirik korxona-muassasalarda ham idoraviy arxiv joriy etish asosiy vazifalardan biri hisoblangan. Xususan, Qo'qon shahridagi 2-yog' zavodi uchun 1937 yil uchun smetasida arxiv xodimi lavozimi tasdiqlanmaganligi, yuqori tashkilotlar orqali kombinatga Arxiv xodimi lavozimini belgilash yuzasidan chora ko'rilishini so'rab murojaat yo'llangan[4]. Idoraviy arxivlarni tashkil etish masalasi dolzarbligi soha barcha tashkilotlar uchun muhim ekanidan dalolat beradi. Demak, arxiv hujjatlari barcha muassasalarda yaxshi saqlanishini taminlash uchun chora-tadbirlar amalga oshirilgan.

Hududiy o'zgarishlar, yangi shahar va rayonlar birlashuvi arxiv muassasalarini chetlab o'tmadi. 1960 yil 6 aprelda Namangan oblastidagi davlat arxivini Andijon oblasti davlat arxivi filialiga aylantirish to'g'risida qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1960 yil 25 yanvardagi "Namangan oblastini O'zbekiston SSR tarkibidan tugatish to'g'risida"gi Farmoni munosabati bilan Namangan oblast davlat arxivi ilmiy-tadqiqot muassasasi sifatida Andijon oblast davlat arxivining Namangan shahridagi filialiga aylantirish to'g'risida oblast ijroiya qo'mitasi qaror qabul qilgan[6]. SHu tariqa arxiv organi ham hududiy o'zgarishga muvofiq yangilangan.

O'zbekiston SSR davlat arxivlari tarmog'i 1962 yilga kelib quyidagi ko'rinishda bo'lgan:

I. Markaziy va oblast davlat arxivlari.

1. O'zbekiston SSR Markaziy davlat arxivi.
2. O'zbekiston SSR Markaziy davlat tibbiyot arxivi.
3. Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti huzuridagi Qoraqalpog'iston Sovet Sotsialistik Respublikasi Markaziy davlat arxivi.
4. Andijon oblasti ijroiya qo'mitasi huzuridagi Andijon oblasti davlat arxivi.
5. Buxoro oblasti ijroiya qo'mitasi huzuridagi Buxoro oblasti davlat arxivi
6. Samarqand oblasti ijroiya qo'mitasi huzuridagi Samarqand oblasti davlat arxivi.
7. Surxondaryo oblast ijroiya qo'mitasi huzuridagi Surxondaryo oblasti davlat arxivi.
8. Toshkent oblasti ijroiya qo'mitasi huzuridagi Toshkent oblasti davlat arxivi.
9. Farg'ona oblasti ijroiya qo'mitasi huzuridagi Farg'ona oblasti davlat arxivi.
10. Xorazm oblasti ijroiya qo'mitasi huzuridagi Xorazm oblasti davlat arxivi mavjud bo'lgan.

II. Oblast davlat arxivlari filiallari, rayonlararo va rayon davlat arxivlarining

Andijon oblastida

1. Andijon oblasti davlat arxivining Namangan shahridagi filiali.
2. Izboskan rayonlararo davlat arxivi.
3. Qo'rg'ontepa rayonlararo davlat arxivi.
4. Lenin (hozirgi Asaka) rayonlararo davlat arxivi.
5. Shahrixon rayonlararo davlat arxivi.
6. Chust rayonlararo davlat arxivi.

Farg'ona oblasti bo'yicha esa

1. Qo'qon rayonlararo davlat arxivi.
2. Marg'ilon rayonlararo davlat arxivi.
3. Farg'ona rayon-shahar davlat arxivlari bo'lgan[5]. 1968 yil 29 martda Andijon oblasti Kengashi Ijroiya qo'mitasi rayondagi kolxozlar, qishloq sovetlari va barcha tashkilotlarda arxiv hujjatlarini saqlash hamda tartibga solish to'g'risida 107-sonli Qaror qabul qiladi. Ushbu qarorga muvofiq, arxiv hujjatlari saqlanish holatini tekshirish va ish yuritish tizimini o'rganish bo'yicha 13

kishidan iborat komissiya tuzilgan. Ushbu komissiya o'rganish ishlaridan tashqari arxiv xodimlariga amaliy yordam ham bergan. Tekshiruv o'tkazish bo'yicha qaror loyihasi barcha kolxoz, muassasa va tashkilotlarga tarqatilgan, bu haqda "Kommunizim tongi" gazetasida alohida maqola ham chop etilgan. Oblast arxivining Andijon shahri filiali xodimlari tomonidan "Kirov", "Leningrad" hamda "Lenin" kolxozlarining hujjatlari tartibga solingan va davlat arxiviga qabul qilingan[7].

4. Xulosa:

Umuman olganda, farg'ona vodiysi arxivlarida ham o'zgarishlar yuz berib, ko'plab tashkilot va korxonalar hujjatlari saqlanishi ta'minlandi, kerakli mutaxassislar jalb etildi. Zamonaviy ko'rinishdagi arxivlar qurildi, ammo bu bilan arxivlardagi muammolarni bartaraf etilgan yoki tartibga solingan deb bo'lmasdi. Ayrim hududlarda arxiv sohasidagi yangiliklarni ortga surish holatlari kuzatildi. Kadrlar yetishmovchiligi mavjud edi. Lekin, shunga qaramay, o'sha davrda yaratilgan hujjatlar saqlovi ta'minlandi. Bu orqali biz bugungi kunda Andijon oblastiga tegishli shaxslar hayoti va faoliyati bilan tanishish, hududdagi o'zgarishlar, yangiliklarni asrab-avaylangan hujjatli materiallar orqali topishimiz mumkin. Bu esa tarixiy xotirani tiklashda muhimdir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

-
1. Тилеукулов Г. С. Архивное дело в Узбекистане (1918–1980-е гг.): опыт и проблемы: Автореф. дисс...канд.ист.наук. – Ташкент, 1995.
 2. Jumayev U. O'zbekistonda arxiv ishi tarixi. – Toshkent: Turon iqbol, 2016.
 3. Farg'ona viloyati davlat arxivi. 4-fond. 1-ro'yxat. 17-ish.
 4. Farg'ona viloyati davlat arxivi. 4-fond. 1-ro'yxat. 149-ish
 5. Farg'ona viloyat davlat arxivi. 1124-fond. 7-ro'yxat. 1050-ish
 6. Namangan viloyati davlat arxivi. 788-fond, 1-ro'yxat, 2-ish.
 7. Andijon viloyati davlat arxivi. 476-fond, 1-ro'yxat, 289-ish

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000